XALQ DEPUTATLARI G‘ALLAOROL TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 13-fevral VII-4-22-3-45-K/25 G‘allaorol tumani

G‘allaorol tuman Madaniyat bo‘limiga mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2020-yil 25-dekabr kuni mamlakatimiz yoshlari bilan videoselektor tarzida o‘tkazilgan O‘zbekiston yoshlari forumining 100-sonli bayonida hamda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasining 2021-yil 9-sonli bayonida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy hokimiyat to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (M.Turdimurodov)ga tuman mahalliy byudjetining 2025-yilboshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan **48 236,0 (qirq sakkiz million ikki yuz o‘ttiz olti) ming.so‘m** mablag‘ni tuman Madaniyat bo‘limiga ajratish, byudjetga tegishli o‘zgartirish kiritish vazifasi topshirilsin.

2. Tuman Madaniyat bo‘limi (U.Baxramov)ga tuman mahalliy byudjetidan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman g‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (B.Sattarov)ga mahalliy byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni tegishli hisob raqamga o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta’minlasin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish, xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosarlari T.Qo‘chqorov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

OQBOYEV JALOLITDIN JAMOLOVICH